

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2005-yil 19 – 25-sentabr N:38 (66527)

Istak

## HUNARMAND QIZLAR

Sinfdoshlarim Shahlo va Gulshan yaqinda o'n olti yoshlari qarshilaydilar. O'smirlik davridan balog'at bekatiga qadam qo'yayotgan qizlarga hammaning havasi keladi. Ular bichish-tikishni, to'qishni, biser tang'ishni mufassal egallab, endilikda lazzatli pishirqlar, salat va taomlarni o'rganyaptilar. Ular tikkan parda va choyshablarni ko'rgan boshqa sinfdoshlarimiz ham hunar o'rganish payiga tushgan. Boshqalarga o'rnak bo'layotgan bu sinfdoshlarimning kelajakdag'i ishlariga omad tilaymiz.



Salim ABDUG'ANIYEV, Furqat O'LJAYEV,  
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi  
20-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchilari.

Maktabga bora turib yo'lda o'ynamang, uchragan bolalar bilan so'zlashib turmang: tarbiyasiz, yaramas bolalar bilan birga yurmang.

Maktabga kirganingizda tashqi kiyimlaringizni belgili yerga qo'yib, o'qituvchi va o'rtoqlaringizga ochiq yuz bilan salom bering. Dars vaqtida hech kimni qismay, ranjitmay o'rningizga o'rnashing, yoningizdag'i o'rtog'ingizga xalaqit bermang. O'zo'rningizda hech bir tomonga og'ishmay o'qituvchiga qarab to'ppa-to'g'ri o'tiring. Bir fan o'qituvchisi dars berib turganda, uning darsiga quloq solmay, boshqa darsni tayyorlab o'tirmang.

Dars vaqtida o'rtog'ingiz bilan so'zlashmay, darsga diqqat bilan quloq soling, shunday qilsangiz, o'qituvchingiz sizdan xursand bo'ladi, ilmingizdan foyda ko'rasiz. O'qituvchingiz savol berayotganda o'rnigizdan turing, o'qituvchingizning so'zlarini diqqat qilib

tinglang, keyin ochiq va muloyim tovush bilan javob bering. O'rtoqlaringizdan so'ralgan savolga o'qituvchingizning ruxsatisiz aralashmang. So'zingizda yoki yozuvlariningizda bo'lgan yanglishliklarni o'qituvchilaringiz

tuzatsalar, xafa bo'lmang, ularning o'qish, yozish yoki yordam uchun bergen vazifalarini chin ixlos va muhabbat bilan baho keltiring.

Kitob, daftар va darsga kerakli boshqa narsalaringizni, kiyimlaringizni toza, tartibili tuting. Qalamlariningizni kiyimlaringizga yoki sochlaringizga surtmang, og'zingizga olmang, bu narsalar kasallikk sababchi bo'ladi. Maktab

devorlariga osib qo'yilgan xaritalarga, ko'chada yurganiningiza eshilklarga, bog'chalarda bo'lgan o'tirg'ichlarga har turli yozuvlar yozmang. Bu narsalar tarbiyasiz bolalarning ishidir.

O'ynalaringiz dam olish soatlarida, kunlarida bo'lsin, darslaringizga

Guljamol buvi mehnat faoliyatini maktabdan boshlagan. Keyinchalik matbuot sohasida, ya'ni Paxtachi tumanidagi «Uchqun» gazetasi bosmaxonasida harf teruvchi bo'lib ishlagan. Ustozi Abdulhay Fatxullindan matn terish, sahifalash sirlarini qunt bilan o'rgangan.

– Dastlab harflarni qo'lda tergan bo'lsak, keyinchalik aqlli mashinalar paydo bo'lib og'ir mehnatimizga barham berdi, – deydi buvi. – Har bir kasbda puxta

taqdirlangan. Bugungi kunda nabiralar qurshovida qarlik

gashtini surayotgan buvijon ularni o'z gazetasi «Tong yulduzi»ga kechiktirmay nafaqa pulidan obuna qilib qo'yadi.



E'tibor

– Matbuot xabarlaridan, yangiliklardan, yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlardan xabardor bo'lib tursam, o'zimni yengil his qilaman. Ongim, tafakkurim «Tong yulduzi» (ilgarigi «Lenin uchquni») gazetasi

## OBUNAGA BOSH-QOSH BUVIJON

tajriba talab qilingani kabi bu sohaning ham nozik tomonlari ko'p edi. Har bir matnni diqqat bilan xatosiz terib joylashtirish kishidan katta mas'uliyat talab qilardi. Gazetaning o'qimishli bo'lishi uchun barchamiz birdek mehnat qilib, hamisha yangilikka intilardik.

Ustoz o'gitlariga amal qilib kam bo'lmagan Guljamol Ayupovaning o'zi ham bugungi kunda ko'pchilikning sevimli ustozi. Halol mehnati tufayli «Faxriy yorliq»lar, «Matbuot a'lochisi» nishoni, «Mehnat faxriysi» medali bilan

orgali rivojlangan desam aslo mübolag'a emas. Nabiralarimga ham yil davomida «Tong yulduzi»ni o'qib boring, deyman. Unda biz kattalar uchun ham ibratli maqolalar chop etiladi.

Buvi va nabiralarning hayoti gazetamizga oshnolikda babs-munozaralar bilan qizg'in davom etadi. Kim ko'p o'qigani-yu, hayotni teran anglagani albatta buvijonlari tomonidan baholanadi.

Nuriddin HAYDAROV.

zarar yetkazmasin, pok, toza va xush havoli yerlarda tartib va odob doirasida bo'lsin.

Maktabdan uyga qaytganingizda ota-onangizga salom bering. Kitoblariningiz va boshqa dars

ma'naviy ona va otalaringizdir. Shuning uchun ularni chin ko'ngildan seving, nasihatlarini jonu dil bilan qabul qiling. O'qituvchilariningizni hurmat qilib huzurlarida odobli o'tiring. O'qituvchilarining yoniningizga kelsalar, darhol o'rningizdan turib, salom berib qarshi o l i n g , buyruqlarini

kutib turing. Biror narsa haqida so'rasalar, yaxshi javob bering. Darsda tushunmagan yerlaringiz bo'lsa, ulardan muloyimlik bilan so'rang.

Maktabni bitirganlarga esa maslahatimiz, – «Endi ilmim yetarli bo'ldi, o'qimasam ham bo'ladi» demang, ilmdan ayrlimang, hamisha kitob mutolaa qiling. Adabiy risola va kitoblarini ko'proq o'qing, bular orqali zehningiz ochiladi, aqlingiz ortadi, fikringiz to'g'ri bo'ladi. Sizga ta'lim bergan o'qituvchilarining ma'naviy ona va otalaringizni a s l o unutmang.

## O'QUVCHIGA ESDALIK

asboblariningizni belgili o'rnlarga qo'ying. Xoh maktab ichida, xoh boshqa yerlarda bo'lsin, odobsiz so'zlar so'zlamang, nojo'ya qiliqlar qilmang, bunday yoshlardan tarbiyalni odamlar nafrat qiladi.

Darslariningizni goldirmang, maktabga kechikib bormang. Maktabga borish, dars o'qishdan maqsad – tarbiyalni, komil va jamiyatning foydali a'zosini bo'lib yetishishdir, buni esdan chiqarmang.

O'qituvchilarining sizning hamma ishlariningizni yo'lgaga qo'yuvchilar va sizlar uchun qayg'u hasrat chekuvchilar bo'lganlari uchun sizlarning ustingizda ulug' haqlari bordir. Shuning uchun ularning buyruqlarini joyiga keltiring, ma'nigilgan ishlaridan tiyiling.

Ular bilan so'zlashganda, hurmat qilib so'zlashing, o'qituvchilarining





## QIZALOQLAR - QIZG'ALDOQLAR

Siz suratda ko'rib turgan mana bu jajji qizaloqlar ahil opa-singillar - Nilufar va Nargiza Odilovalar. Har ikkisining qo'lida ham guldek hunari bor: biri tikadi, biri to'qiydi. Bu chaqqon qizaloqlardan onalariga uy yumushlari ham ortmay qolgan. Pazandalik sirlarini ham o'rganishmoqchisu, gaz plitasiga biroz bo'yulari yetmay turibdi-da...



Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 12-maktabning 3- va 4-sinflarida tahsil olayotgan bu qizaloqlarning o'qishlari ham chakki emas. Nilufarni ustozi Inobat opa Komilovaning, Nargizani esa birinchi o'qituvchisi Xolida opa Saidqulovaning «o'ng qo'li» deb atashlari ham bejiz emas. Chunki sinfda o'tadigan hech bir tadbir, tantana ularning ishtirokisiz o'tmaydi. Yangi o'quv yili boshlanganiga hali ko'p bo'lmasa-da, opa-singillar kundaligidagi «5» baho anchaga borib qoldi.

Bizning 32- umumta'lum maktabimiz yonida joylashgan 8-tarmoq kutubxonasi doimo kitobxonlar bilan gavjum. Ushbu maskanning mehribon, shirinso'z xodimlari Oyдинaxon va Tamaraxon opalarimiz yoshimizga mos kitoblarni bir zumda topib beradilar. Ular bizning 5-«A» sinfimiz o'quvchilarini eng faol kitobxonlar deb atashadi. Shu bois biz uchun «Oltin toj» musobaqasini o'tkazishlarini aytishganida barchamiz quvonib ketdik. Sinf rahbarimiz

## KUTUBXONADA «OLTIN TOJ»

o'yinda ishtirok etish uchun uch nafar faol o'quvchilarini tanlab berdilar. Tanlov shartiga ko'ra rasm chizish, savol-javob, krossvord yechish bo'yicha sinfdoshlarimiz bellashdilar. Eng ko'p ball to'plagan sinfimiz sardori Sadoqat Tursunaliyeva «Oltin toj» sohibasi bo'ldi. Shundan so'ng tomoshabinlar o'rtasida ham savol-javob o'tkazildi. Kutubxonachi opalarimiz berilgan qiziqrli savollarga Anvar hamda meni ko'p javob topganimizni e'lon qilganlarida xursandchilimizdan boshimiz ko'kka yetdi. Tadbirimiz so'nggida uch nafar «Oltin toj» ishtirokchilariga va bizga kutubxonachi opalarimiz esdalik sovg'alari topshirishdi. Ziyo maskanida o'tkazilgan tadbir barchamizda katta taassurot qoldirdi.

Xursanoy AZIMOVA,  
Farg'onan viloyati, Rishton tumani, Avazboy qishlog'i.

## BUVIMNING SANDIG'I

Biz katta hovlida istiqomat qilamiz. Buvijonim bizlarning eng yaqin maslahatgo'yimiz. Ayniqsa, menga o'zlarining yoshlik davrlarini tez-tez so'zlab beradilar. Ularning bolaliklari 2-jahon urushidan keyinga to'g'ri kelgan ekan. Qahatchilik davrini boshidan kechirgan buvijonim, bugungi kun qadriga yetishimiz kerakligini, mustaqil yurtda o'sayotganimizdan faxlanishimiz lozimligini uqtiradilar. Buvim so'zlab bergen har bir tarixiy hikoyalari men va uka-singillarim uchun ibrat bo'ladi.

Charos TURSUNOVA, Qashqadaryo viloyati,  
Kasbi tumanidagi 15-maktabning 5-sinf o'quvchisi.

## MEN HAM SENGA MUXBIRMAN

Ha, men «Tong yulduzi» gazetasining jamoatchi muxbirman, deb faxrlanib aytal olaman. Chunki maktub orqali jo'natgan «Navro'z», «Yana bodom gulladi» deb nomlangan she'larim, «Yolg'onzhilar kuni bo'lsa ham rost so'zlabdi» nomli kichik maqolam ostida «Yulduzlar» she'rim gazeta sahifalaridan joy oldi. Ular 2003-yilda nashr etilgan bo'lib, afsuski obuna bo'lmaganim sababli gazetani bir yildan so'ng zo'rg'a topdim. Shunday muammoga duch kelmaslik uchun ham bu yil «Tong yulduzi»ga birinchilardan bo'lib obuna bo'laman. E'tiboringizga quyidagi she'rimni havola etmoqchiman.

Andijon viloyati, Baligchi tumanidagi Cho'ngayla qishlog'i.

## ODAMLAR

Shamollarda ma'yus bosh egib,  
Silkinadi bir tup qayrag'och.  
Yolg'izlikdan qon yig'laydi u,  
Vujudi gar bo'lsa ham yog'och.  
  
O'sar edi yonida chinor,  
Savlatida edi ming vigor.  
Kesib ketdi uni odamlar,  
Qayrag'ochga etib dunyo tor.  
  
Sira chiqmas yodimdan mening,  
Birga o'sgan ajoyib damlar.  
Chinor kabi, qayrag'ochni ham,  
Bolta bilan chopdi odamlar...  
Yangi ko'chat topdi odamlar...

Abdulaziz MAMADALIYEV,

Dilshod IMOMOV,  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 316-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi.

## AGAR KATTA QIZ BO'LSAM...



Men yaqindagina birinchi sinfga bordim. Maktabda olgan taassurotlarim, bu yerdagi yangi do'stlarim haqida onajonimga so'zlayverib ularni ham charchatib qo'yaman. Chunki tezroq katta qiz bo'lsam-u, maktabga borsam, sinfimizdageng a'lochi va odobli qiz bo'laman, deb o'z-o'zimga so'z bergandim-da. Yana oyijonimga uy yumushlarida birinchi yordamchi ham

o'zimman. Men Uchtepa tumanidagi 20-bolalar bog'chasida tarbiyalanganman. Ustozimiz Tatyana Viktorovnaning aytishlaricha, bog'chada o'rgangan barcha bilimlarimizni maktabda ham takrorlar ekanmiz. Bizni bog'chamizda turli sport musobaqalari o'tkazilib turilardi. U yerdagi tanlovlarda qatnashib, tarbiyachilarimiz olqishlariga sazovor bo'lardim. Men katta qiz bo'lganimda mashhur sport ustasi bo'lmochiman. Chunki sport odamlarni sog'-salomat bo'lishiga, ularni teran fikrlashiga sababchi ekan. Bundan tashqari, katta bo'lganimda qaysi kasjni tanlashim sir bo'lib tursin. Buni keyin o'zim qulog'ingizga shivirlab aytaman.

Maftuna KARIMBERDIYEVA,  
poytaxtimizdagi 107-maktabning 1-«D» sinf o'quvchisi.

Katta tanaffus

## KIM CHAQQON?

O'yin maydonchada o'tkaziladi. Maydonchaga chizilgan doira soniga (4-5 nafar) bog'liq bo'ladi.

Boshlovchi maydon o'rtasida turadi, o'yinchilar esa o'z doirasi chizig'i tashqarisiga o'tadilar. Boshlovchi va o'yinchilar oldindan signallar turiga qarab kim-kimning o'rnini egallashini kelishib oladilar. Faqat kelishilgan signallar turi quyidagicha bo'ladi. Chapak chalish, hushtak chalish, boshlovchilarining turli harakat qilishi bilan belgilanadi. Boshlovchi signal berganda o'yin boshlanishi bilan o'yinchilar o'zaro kelishilgan signallarga muvofiq joylarini almashtiradilar. Boshlovchi shu paytda birorta o'yinchining joyini egallab olishga intiladi. Joysiz qolgan o'yinchisi boshlovchi bo'lib qoladi va o'yin davom ettiriladi. Biror marta ham joysiz qolmagan o'quvchi epchil, chaqqon va g'olib deb e'lon qilinadi.

Bu o'yin o'quvchida epchillik, chaqqonlik sifatlarini tarbiyalaydi. Sport mashg'ulotlarida bu o'yin basketbol, gandbol (qo'l to'pi), futbolchilarining mahoratlarini oshirishda yaqindan yordam beradi.

2005-yil –Sihat-salomatlilik yili

Aziz bolalar, muassislarimizdan biri «Sog'gom avlod uchun» Xalqaro xayriya jamg'armasi onalar va bolalar salomatligini, kam ta'minlangan oilalardagi bemor bolalarni ijtimoiy va tibbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida muhim ishlarni amalgamoshirmogda.

Jamg'arma (Germaniya) «Friedenstorf Internezhnl» hamda (AQSH) «Engrat», «Smayl Treyn» xalqaro tashkilotlari bilan faol hamkorlik qilib, yil davomida 200 nafar tug'ma lab-tanglay nuqsoni bo'lgan nogiron bolalarga 12.389.000 so'm mablag' doirasida jarrohlik operatsiyalari o'tkazilishida bosh bo'ldi.



AQSHning «Engrat» xalqaro gumanitar tashkiloti tomonidan taklif etilgan 9 nafar shifokorlar respublikamizning Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand viloyatlarida 1-boschichda 917 nafar aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazdilar. Ulardan 112 nafari bolalar, 452 nafari esa ayollar edi. 145 nafar bemorlarga optik ko'zoynaklar, 37 nafar bemorlarga endoskopiya tekshirishlari, 645 nafar bemorlarga dorimondalar topshirildi. Aholiga jami 26000 AQSH dollarini miqdorida muruvvat yordami berildi.


## «SOG'LOM AVLOD UCHUN» SOG'LOM BOLALIK KERAK

Jamg'arma shartnomaga asosan 2002-yilning avgust oyidan boshlab o'zbekistonlik 12 yoshgacha bo'lgan bemor va nogiron bolalarni Germanianing nufuzli klinikalarida davolash va rehabilitatsiya qilish bilan shug'ullanmoqda. O'tgan davr mobaynida Respublikamizdan Germaniya klinikalarida davolanishga yuborilgan 51 nafar bemor bolalar davolandilar.


Shu yilning avgustida esa Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanidagi «Oq buloq» SVPda, «Jumabozor» SVPda, «Surankent» SVPlarining jami 839 nafar aholisini tibbiy ko'rikdan o'tkazdilar. Ulardan 259 nafari bolalar, 405 nafari esa ayollarini tashkil etadi. Aholiga jami 80000 AQSH dollarini miqdorida muruvvat yordami berildi.



Janubiy koreyalik shifokorlar bilan hamkorlikda ToshPMI klinikasida lab-tanglay tug'ma nuqsoni va tananing kuyishidan keyingi kontrakturasi tashxisi bilan xastalangan 40 nafarga yaqin bemor bolalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazdi, ulardan 12 nafari xayriya tarzda operatsiya qilindi. Shuningdek, yurak xastaligi bo'yicha shifokorlar bilan hamkorlikda 49 nafar kam ta'minlangan bemor bolalar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ulardan 3 nafari Koreyada davolanish uchun tanlab olindi.



«Sog'gom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi direktori D.M.Olimjonova Mustaqilligimiz bayrami arafasida Sirdaryo viloyatining chekka hududlarida viloyat mintaqaviy filiali direktori A.O. Esanova va xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda Sardoba, Xovos hamda Guliston shahar va tumanlarida bayram oldi xayriya tadbirlarini o'tkazdi. Gulistonida 30 ta oilalarga, Sardoba tumanida 50 ta, Xovos tumanida 25 oilalarga «Sog'gom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi orqali xalqaro tashkilotlar tomonidan keltirilgan 550 dona dorimondalar, 200 dona ko'rpa-jildlari, 60 dona ko'rpa-yostiqlar, 60 dona kiyim-kechaklar, 70 juft oyoq kiyimlar, 1106,4 kg. oziq-ovqatlar va 250 dona sanitariya-gigiyenik vositalari, 120 dona bolalar ozuqasi muruvvat yordami sifatida taqdim etildi.



Jigarning kattagina qismi o'ng, kichik qismi esa chap qovurg'a ostida joylashgan bo'lib, yuqori chegarasi 4-5 qovurg'alar orasiga to'g'ri keladi. Sog'gom odamlarda jigarning pastki cheti qovurg'a ravog'ining tagidan chiqmaydi. Jigar qizg'ish, kulrang tusda bo'lib, ushlab ko'rilmaga qo'lga juda yumshoq unnaydi, uning uzunligi 20-22 sm. eni 10-12 sm. qalinligi esa 7-8 sm. atrofida bo'ladi.

## BADANINGIZ NEGA SARG'AYDI?

Ustki diafragmaga tegib turadigan qismi silliq va do'ng bo'lib, yurakka tegib turadigan bo'lagida yurak hosil qilgan botiqlik bor. U baquvvat o'roqsimon shakldagi bog'lam vositasida diafragmaga osilib turadi.

Pastki yuzasida esa me'da va qizilo'ngach, buyrak va buyrak usti bezlari, 12 barmoq va yo'g'on ichaklar taqalib turishidan hosil bo'lgan botiqliklar mavjud. Ovqat hazm qilish tuzilmasi orqali so'rilmagan har qanday modda birinchi navbatda jigarga boradi. Ma'lumki biz tanovvul etadigan oziq-ovqatlar asosan uch moddadan: uglevodlar, oqsillar va

Tabib tabib emas, boshidan o'tkazgan tabib

yog'lardan tashkil topgan. Jigar faoliyatini ayrim buzilishlari tashqi belgilarsiz kechishi ham mumkin, bular faqat sinchiklab laboratoriya tekshirishlari orqali aniqlanadi. Jigar faoliyatining kuchliroq darajada buzilishlari esa badanning sarg'ayib ketishi, burundan qon kelishi va hatto hushdan ketib qolishgacha olib keladi.

Xastalikning dastlabki davrida choy-mevali parhez

saqlanishi lozim. Meva va sabzavotlardan tayyorlangan kompotlar, sharbatlarning xasta jigar uchun benihoya foydasida bor. Sut-qatiq mahsulotlari esa bemor ishtasining yaxshilanishi va ovqatning yaxshi hazm bo'lishiga olib keladi. Ishtaha ochilavergan sayin bug'doy non iste'mol qilinib, tovuq go'shti va yog'siz baliqlar qaynatilgan holda dasturxonga tortiladi. Qorinni dam qiladigan karam, sholg'om kabi sabzavotlarni kasallik davri o'tib ketgunga qadar iste'mol qilmaslik lozim.

Ahror AHMEDOV, O'zMU talabasi.



Bugungi kunda 5 nafar bemor bolalar Germaniyada davolanishni davom ettirmoqdalar. 2005-yil davomida 16 nafar bemor bolalar Germaniya klinikalariga davolanishga yuborildi.

## BOLALARНИ RAG'BATLANTIRISH - TALTAVTIRISH DEGANI EMAS

Saudiya Arabistonli Qirolligining O'zbekistondagi elchixonasiga vaqtinchalik ishonchli vakil Abdurahmon bin Abdul Aziz Ahanmay ja noblaribilan suhbatlashishga borib, ularning naqadar iltifotli ekanliklariga, mehmono'st va shirinsuxanligiga qoyil qoldim.

- Elchixonamizga xush kelibsiz, Muharramxonim. Biz Siz kabi jurnalistlarning e'tiboru ehtiromidan xursandmiz. Bilingki, elchixonamiz eshiklari Sizga doimo ochiq. Saudiya Arabistonli Qirolligini ikkinchi Vatanim deyishingizni istardim. Biz mamlakatimizga oid ma'lumotlarni qiziquvchi jurnalislarga taqdim etishdan mammunmiz. Ayniqsa, bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan «Tong yulduzi» gazetasining maqsadi menga ma'qul bo'ldi. Mushtariylar xorijlik tengdoshlari hayoti bilan qiziqishi tabiiy hol.

*- Menimcha, dunyodagi jamiki go'daklar bir-biriga o'xshaydi. Ular shirin so'zga, o'yinchog'u noz-ne'matlarga o'ch bo'ladi, shunday emasmi?*

- Juda to'g'ri, bolalarning talabi har yerda ham bir xil. Biroq, imkoniyat turli. Mana, Saudiya Arabistonli Qirolligidagi shart-sharoitlar Amerika kabi rivojlangan mamlakatlar o'lichovida yaratilgan. Bizda ham yirik savdo markazlari tashkil etilgan bo'lib, ular asosan yopiq imoratlarga biriktirilgan bir nechta do'konlardan iborat. Ko'p qavatli bunday savdo markazida bolalar kiyim-kechaklari, o'yinchoqlar, o'quv qurollari sotiladigan katta do'konlardan tashqari albatta bolajonlarga mo'ljallangan atraksion o'yin moslamali o'yingohlar, maydonchalar, keyin bolalar restoranlari bor. Xarid uchun tashrif buyurgan ota-onalar o'sha yerda farzandlarini qoldirib, o'zlarini ehtiyojlar uchun bemalol do'kon aylanishlari mumkin. Savdo markazlarida hatto kichik yoshdagagi go'daklar uchun maxsus o'yingohlar mavjud bo'lib, u yerda nazoratchi-tarbiyachilar ham bo'ladi. Bilasizmi, mamlakatimiz eshiklari jahon yangiliklari, dunyo mollari uchun ochiq bo'lganligi sababli ham, informatsion yangiliklar, ya'ni kompyuter o'yinlarining eng so'nggi turlari-yu internet bolalarimiz uchun xizmat qiladi. Ular xorijlik tengdoshlari bilan bemalol fikr almashib, o'zlariga kerakli elektron o'yin sohibi bo'lishi mumkin. Arablar farzandlarining

talablarini qondirishni oddiy holga aylantirgan. Masalan, kambag'alroq oilami yoki boy-badavlatmi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bir haftada kamida bir marotaba farzandlarini aylantirishga, o'yinchoqlar xarid qilishga va kichkintoylar restoraniga olib borishga odatlangan.

*- Bu holat bolaning ortiqcha taltayib ketishiga sabab bo'lmaydimi?*

- Yuqorida aytganlarimning barchasi bolani rag'batlantirish maqsadida qilinadi. Albatta oila o'z zimmisiga farzandi ga diniy ta'lim, konservativ madaniyat, tarixdan saboq, jahon sivilizatsiyasidan

ma'lumot, savodxonlik ko'nkmalarini o'rgatishga majbur. Bizda ham bolalar bog'chalari mavjud. U yerda ta'lim-tarbiyaning ilk bosqichlari qat'iy intizom asosida o'rgatiladi. Bolalar ruhiyatini mukammal o'rganib, oliygochlarni bitirgan yetuk mutaxassislar tarbiyachi bo'lib ishlaysi. Hukumatimiz ayol tarbiyachilarining mehnatini qadrlab, ularni rag'batlantirib turadi.



Saudiya Arabistonli Qirolligi elchixonasining vaqtinchalik ishonchli vakili Abdurahmon bin Abdul Aziz Ahanmay janoblari

qiziquvchi yoshlarga sayohat uyushtirishiga, ijodkorlarga kitob chiqarishiga ko'maklashadi. Shuningdek, «Kashshof»lar tashkiloti ham o'quvchi yoshlar hayotining to'g'ri taqsimlanishiga, kasb-hunar egallashiga, qiziqarli muloqotlar uyushtirishga xayrixoh. Eng iqtidorlilarini sovg'a-salomlar, pul mukofotlari bilan siylaydi. Saudiya Arabistonli Xalq ta'limi vazirligi

saudiyalik talabalar Amerika Qo'shma Shtatlari universitetlarida tahsil olish yo'llarini izlamoqda. Ularga Oliy ta'lim vazirligi o'qish xarajatlarini to'lash haqidagi bank sug'urtalarini, hujjalarning ingliz tilidagi tarjimalarini, Amerika elchixonasidan ruxsatnomalarini taqdim etadi. Talabalar o'zlarini xohlagan oliygochlarni imtihon va sinovlaridan o'tib olsalar

bas. Pedagog Xolid Ar-Ribai o'z navbatida Saudiya Arabistonli Qirolligining talabalarni xorijda o'qishlari uchun hukumat mablag'ni o'z bo'yniga olayotganini qo'llab-quvvatlab, yangi avlod yanada malakali va tajribali bo'lishlari, vatani ravnaqiga katta hissa qo'shaklarini ta'kidladi.

*- Saudiya Arabistonidagi universitetlar-chi?*

- Bizda sakkizta universitetlar bo'lib, barchasi eng so'nggi rusumdagagi jihozlar bilan ta'minlangan. U yerda yuqori malakali professor va o'qituvchilar jahon standartlariga mos ravishda saboq beradi. Ar-Riyoddagi Podshoh Saud asos solgan birinchi universitetda aniq, tabiiy, shuningdek, gumanitar fanlar o'qitilsa, Madinadagi Islom universitetida islom ilmlari o'rganiladi. Ar-Riyoddagi Imom ibn Saud nomidagi Islom universitetida islom qoidalaridan tashqari arab adabiyoti, ijtimoiy fanlar o'rgatiladi...

*- Mushtariylarimiz orasida kelajakda Sizdek diplomat bo'lishni orzu qiladiganlar bor.*

- Diplomat bu o'sha mamlakatning ko'zgusi demak. Xoh ayol bo'lsin, xoh yigit kishi jahon muomala andozasidan boxabar bo'lmog'i darkor. U nafaqat «smoking» kiyib, ozoda ko'rinishi, balki stol atrofida ham qaddi rost o'tirishi, pichoq-qoshiqlarni to'g'ri ushslashdan tortib, jami etiket qoidasini bilishi kerak. Bu ehtimol mayda-chuydadek ko'rinar, lekin siz faoliyat olib borayotgan yurtga behurmatlik bo'lmashligi kerak-da. Elchi o'z yurtining tarixi-yu madaniyatidan, bugungi kun siyosati-yu iqtisodidan boxabar bo'libgina qolmay, o'zga yurt qadriyatlarini e'zozlay olishi kerak. Fursatdan foydalanib, o'zbekistonlik o'quvchi yoshlarning ko'proq bilim olishlarini, kamida 3-4 tadan xorijiy tilni mukammal o'rganib,

chet ellarga bemalol safar uyushtirishlarini, o'rganganlari asosida o'z vatanlari ravnaqida xizmat qilishlarini tilayman.

*- Suhbatingiz uchun tashakkur. Suhbatdosh: Muharrama PIRMATOVA.*

## Bola va dunyo



Saudiya Arabistonli Qirolligi Osiyoning janubi-g'arbiy qismida joylashgan.

**Maydoni** - 2 250 000 kvadrat kilometr.

**Aholisi** - 16 929 294 kishi, ulardan 72.7 foizi saudiyaliklar.

**Pul birligi** - Saudiya riali, 100 xalalayga teng. (1 AQSH dollari - 3.75 rial)

**Iqlimi** - yozda Selsiy bo'yicha 40 darajadan yuqori.

**Ma'muriy viloyatlari**: Qirollik 13ta viloyatlardan iborat: Riyod, Makka, Madina, Al-Qosim, Sharqiy viloyat, Asir, Tabuk, Shimoliy chegara, Jazan, Najran, Baxa va Jouf.


**Milliy bayrami**: 1902-yili podshoh Abdulaziz tomonidan birlashtirilgan Saudiya Arabistonli har yili Tarozi burjining birinchi kuni - 23-sentabrni Qirollikning Milliy Kuni sifatida nishonlaydi.

ta'kidlashicha, hozirda fuqarolar faoliyati Vazirligi bilan hamkorlikda ish olib borib, o'qituvchilar ehtiyojini qondirishda, maktab hayotida uchrab turishi mumkin bo'lgan kutilmagan vaziyatlarni adolatli hal etishda, ko'ngilsizliklarni bartaraf etishda qo'l keladigan turli yechimlarni ishlabsi chiqqan. Ta'lim sohasidagi islohotlarning natijasini 50 yilda 22 000 ta maktab ochilganidan ham bilib olsa bo'ladi.

### OLIV TA'LIM

*- 1997-yil Saudiya Arabistonli Oliy ta'lim vaziri bilan universitetlar rektorlari O'zbekistonga tashrif buyurgan edi. Ikki mamlakat talabalarining almashib o'qishlari yo'liga qo'yilmadi, chog'i?*

- Bu tashrif 2000-yil yana takrorlandi. Biroq, hozircha ijobjiy natijalar bo'lgani yo'q



Oliy

ta'lim vazirliklarning ikki tomonlama kelishuvlari tez-tez mukofotlab turadi. Aytaylik, yaxshi rassomning rasmlar ko'rgazmasini tashkil qilishiga, sportching dunyoga chiqishiga, tarixga

## MOMIQVOY BILAN PAXTAOY

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonlarda bir xonadonda o'rdak va tovuqlar yashagan ekan. Tovuqni Momiqvoy, o'rdakni Paxtaoy degan jo'jalari bo'lib, ular juda qalil do'st ekanlar. Bir kuni ona o'rdak o'rdakchalarini ergashtirib, tovuq don yeayotgan joyga kelib qolibdi. Ona tovuqqa bu yoqmabdi va o'rdakchalarga tashlanibdi. Ona o'rdak uning vajohatidan qo'rqi, o'rdakchalarni ariq tomon boshlab ketibdi. Paxtaoy bilan Momiqvoyni birga o'ynagisi kelib, opa-singillaridan ajrab qolibdi. Buni ko'rgan ona tovuq Paxtaoyni chunonam cho'qibdiki, bechora o'rdakchani ko'zlarini tinib, boshi aylanib qolibdi. Shunda Momiqvoy undan xavotirlana boshlabdi va o'rdakchalar cho'milayotgan ariqcha yoniga boribdi. Qarasa, o'rdakchalar mazza qilib bir-birlarini quvib cho'milishayotgan mish. Uham ariqqa o'zini tashlabdi, lekin ularga o'xshab suza olmabdi ya cho'ka boshlabdi. Buni ko'rgan ona o'rdak uni tumshug'ida ushlab, ariq labiga chiqarib qo'yibdi. O'rdak uni qanotlari ostiga olib qurita boshlabdi. Momiqvoyning yo'q bo'lib qolganini sezgan ona tovuq uni izlay boshlabdi. Ariq bo'yiga borib qolgan ona tovuq uning polaponini o'rdak qanotlari ostiga olib o'tiganini ko'rib qolibdi. Bu vaqtida jo'jacha ancha o'ziga kelib qolgan, u onasi tomon talpinib turardi. Buni ko'rgan ona tovuq qilmishidan uyalib ketdi va ona o'rdak, uning bolalariga mehr bilan termuldi...

Umida ABDULLAYEVA,  
Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi 28-maktab o'quvchisi.

## SEVIMLI GAZETAMIZ



Men salkam uch yildan buyon sevimli gazetam «Tong yulduzi»ga obuna bo'lib kelaman. Bu gazeta keng qamrovli boshqotirmalar, she'rlar, hikoyalar, ertaklarni o'z ichiga olgan. Ayniqla, menga Erkin Malikovning «Osmondan tushgan Oqtosh» hikoyasi juda yoqdi. Bu hikoyani muntazam ravishda o'qib borayapman. Bundan tashqari, o'tgan sonlarda taniqli shoir Iqbol Mirzoning «Qo'lni tashlang», Minxojiddin Mirzoning «Gullash payti keldi, bog'larim», Jabbor Razzoqovning «Vatanni sev onadek» maqolalarini o'qib, juda katta taassurot oldim. Agar biz kelajakda Vatan uchun jonini beruvchi fidoiy inson, olim yoki yetuk mutaxassis bo'lmoqchi bo'lsak, hozirdanoq bilimli, tirishqoq, shijoatli bo'lishimiz kerak. Buning uchun bizga albatta «Tong yulduzi» yordam beradi. Ushbu gazetaga obuna bo'lib, yil mobaynida mazza qilib o'qiganga nima yetsin. Bir oyda bitta yaxshi paypoq yoki ko'yak kam kiysak,

Lola TURDIBOYEVA,  
Parkent tumanidagi 18-o'rta maktabning 8-sinf o'quvchisi.

## DILDAGI GAPLARIM



Men To'ychiboy Olimov 1987- yil Chust tumanining G'ova qishlog'ida tug'ilganman. Ahmad Yassaviy nomli 59-maktabda 2 yil o'qidim. Biroq, 5 yildan beri maktab yuzini ko'rmayman, chunki ikki oyog'im singan. Meni asosiy vaqtim gazeta, jurnal, kitob o'qish bilan o'tadi. Gazetada chiqqan she'rlarni o'qib lazzatlanaman. She'r mashq qilib turaman. O'zimni mashqimdan o'zimni dardimni unutganday bo'laman.

### MƏHR

Ko'rsam-da har qancha mehr- muruvvat,  
Onamning mehriga o'xshamas aslo.  
Yosh boshimga tushsa cheksiz g'am-kulfat,  
Yagona dardkashim onamdir tanho.  
Umid-la yashayman, umidli dunyo,  
Majruh oyog'imga bergil, deb davo.  
Quvonchdan ko'zimga yoshlar inardi,  
Shukr debon senga, tangri taolo.  
Yuragim, o'ksinma qilmagin parvo,  
Tashvishu qayg'uni orqaga cho'zib.  
Mayli, bo'ysunmasin majruh oyoqlar,  
Qalbi nogironlikdan saqlasin o'szi...

### Aralash - quralash

### VATAN

Onajon, o'ksinmang aslo,  
Bu Vatanning kengdir quchog'i.  
Tashlab qo'ymas hech tanho,  
Xalqim mehr o'chog'i.  
Gul ishqida bulbul oshiq,  
Saharlarda nolish qilar.  
Dardimni gar she'r qilsam,  
Ilhom o'zi oqib kelar.  
Men ham bir bulbul kabi,  
Vatanimga chin oshiq.  
Tunu-kun bitganim bitgan,  
Uning uchun kuy-qo'shiq.

To'ychiboy OLIMOV.

Bilag'on bolalar diqqatiga!

Siz gazetamiz sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga ma'lum qiling. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib yoziladi. Tinish belgilari o'z o'rniда ishlatsilmaydi.

**Maqsadimiz: Bilimli bo'ling,**  
**chunki osmonni yulduzlar, yerni esa**  
**bilimlilar bezar.**



## QAYSINISI TO'G'RI?

Bir varaq qog'ozning bir tomoniga «orqa tomonda yozilgan jumla haqiqat» deb, orqa tomoniga esa, «orqa tomonda yozilgan jumla yolg'on» deb yozilgan. Bu yozuvlarning qaysi biri to'g'ri?



## SALIM NECHANCHI UYDI YASHAYDI?

Komil va Salim ko'p qavatlari bitta uyda turishadi. Uyidagi har bir yo'lakning har qavatida 4 tadan xonadon joylashgan. Komil uyning beshinchisi qavatidagi 83 raqamli xonadonda, Salim esa uchinchi qavatidagi 169 raqamli xonadonda yashaydi. Bu uy necha qavatl?

### Aql charxi

## BOSHQASI YOLG'ON

To'rt o'quvchi – Botir, Ilhom, Azamat, Dilshod sport musobaqasida birinchi to'rtta o'rinni egallashdi. «Nechanchi o'rinni egalladingiz?» degan savolga bolalar har xil uchta javobni berishdi.

1. Azamat-ikkinchi, Dilshod-uchinchi o'rinni egallagan.

2. Azamat-birinchi, Ilhom-ikkinchi o'rinni egallagan.

3. Botir-ikkinchi, Dilshod-to'rtinchi o'rinni egallagan.

Agar bu ikkala qismdan iborat javoblarning bir qismi rost, boshqasi yolg'on bo'lsa, o'quvchilarning har biri nechanchi o'rinni egallagan?

### Chorlov

## REMINNAT HASHAR

Mana, yurtimizga oltin sepini yoyib kuz fasli keldi. Aslida bu faslni yig'im-terim fasli deyishadi. Yil bo'yi hosiliga ko'z tikkan dehqon kuzda g'alviri suvdan ko'taradi. Biz ham yurtimiz boyligi bo'lgan oq oltinni yig'ib olish arafasida turibmiz. Bizning maktabimiz o'quvchilari Oqqo'rg'on tumani mehnatkashlarining peshona teri evaziga yetishtirilgan mo'l paxta hosilini yig'ib-terib olish uchun ko'makka otlanishadi. Nurilla Zokirov boshchiligidagi maktabiimz o'quvchilari o'tgan yili ham terimda jonbozlik ko'rsatishib, yuqori natijalarga erishgan edi. Faol o'quvchilar kuniga 48-50 kilogrammdan paxta terib olib, bu yil ham bu sur'atni bo'shashtirmaslikka so'z berishmoqda. Paxta terishning o'ziga yarasha mehnati bilan birga gashti ham bor. Biz u yerda sinfdoshlarimiz bilan yana ham sirdosh va yaqin bo'lib ketgan edik. Poyoni yo'qdek ko'ringan oppoq dalada hazil-mutoyiba bilan paxta terish kishiga o'zgacha zavq bag'ishlaydi.

Dilnoza OMONBOYEVA,  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi  
4- o'rta maktabning 11-sinf o'quvchisi.

yoki bo'lmasa bitta-ikkita shokolad yoxud muzqaymoq yemasak yemabmizza! Buning o'rniga nafaqat «Tong yulduzi»ni, balki boshqa gazeta va jurnallarni ham bemalol o'qisak bo'ladi. Fursatdan foydalanib, men sizga ushbu gazetaga obuna bo'lishingizni maslahat berardim.

### «TONG YULDUZI»

«Tong yulduzi» o'qib men,  
Aqlim charxlab borayapman.  
Ayni kerak joylarin,  
Xotiramga olayapman.  
Shu boisdan bolalar,  
Bo'ling unga obuna.  
Shunda xato qilmaysiz,  
Hech kimdan kam bo'lmay siz.  
«Tong yulduzi» yulduzdir,  
Unda bordir ertaklar.  
O'qing uni har doim,  
Sizni baxtga yetaklar.  
Qisqa qilay she'rimni,  
Yozaversam tugamas.  
Senga bo'lgan muhabbat,  
Aslo-aslo tugamas.



Дар вилояти Фарғона Сўх ном сарзамини муқаддасе чой гирифтааст, ки дар иҳотаи кўҳҳои баланди сарбафалак мавқеъ дорад. Ҳавои мусаффо ва оби зулоли он дорои хислатҳои начибе аст. Ҳар касе, ки аз тамъи ширини оби он лаззат бардошта ва ҳавои тозаи он ба машомаш расадааст, табъи хушу болида насибаш мешавад. Шояд аз ҳамин сабаб бошад, ки ҳар як фарди ин диуор табъи шоири ва тахайюли бадей дорад. Ширинзабон ва ширинкалом аст.

Донишомӯзи синфи ҳафти мактаби рақами 2 Гулруҳсор Бобоева аз ҳамин зумра зодагони Сўх мебошад, ки дар оғӯши деҳаи зебоманзари Офтобрӯ дида ба дунуо күшода, алъон шеър мегўяд. Ўорзу дорад, ки ба мисли шоира Гулруҳсор номвар, номбардори кишвари худ гардад.

## БИБИИ МО – ЯГОНА

Бибичонам дар хона,  
Барои мо ягона.  
Мо гар ҷароғ ҳастем,  
Ў гирди мо парвона.

Хурсандии хонадон,  
Бибии мо ғамхор аст.  
Гулгунчаем. Биби  
Ҳама боғу баҳор аст.

Хуршеди меҳри биби,  
Оваҳ, чи пурҳарорат.  
З-абри нигоҳи покаш,  
Борони меҳр борад!

## ВАТАН

Эй баҳори файзбори ман, Ватан,  
Гулфишону гулузори ман,  
Ватан.  
Меҳрубон дар ҳар нафас  
мисли падар,  
Ҳамчу модар ғамгусори ман,  
Ватан.  
Бар сари мо панҷаи меҳри ту аст,  
Офтоби шўълабори ман, Ватан.  
Ахтарам ман, ахтари тобанде,  
Осмони беканори ман, Ватан.  
Номи ту вирди забон,  
хушдил манам,  
Хуш бимон, эй номдори ман,  
Ватан.

**Гулруҳсор БОБОЕВА,**  
донишомӯзи синфи 7 уми мактаби миуонаи  
рақами 2 ба номи Алишер Навоӣ.

## DIQQAT!!! KITOB BOZORIGA MARHAMAT!

«O'zbekiston» nashriyot matbaa ijodiy uyida nashr qilingan yangi darsliklar va ijtimoiy - siyosiy adabiyotlarning sotuvini tashkil etganligi haqida gazetamizda o'qigan bo'lsangiz kerak. Mazkur nashriyot erkin savdo uchun mavjud bo'lgan qardosh tillardagi darsliklarni ham sotuvini tashkil qildi:

### Tojik tilidagi darsliklar:

- O'qish kitobi 2-sinf
- O'zbek tili 2-sinf
- Ona tili 3-sinf
- O'qish kitobi 3-sinf
- Ona tili 4-sinf
- O'qish kitobi 4-sinf
- Botanika 5-sinf
- Tojik tili 5-sinf
- Fizika 6-sinf
- Algebra 8-sinf- Azimov
- Zaboni tojik 8-sinf
- Geometriya 9-sinf
- Algebra 9-sinf
- Zaboni tojik 9-sinf
- Geometriya 8-sinf
- Geografiya 9-sinf

### Qozoq tilidagi darsliklar:

- O'qish kitobi 2-sinf
- Qozoq tili 3-sinf
- O'qish kitobi 4-sinf
- Qozoq tili 4-sinf
- Botanika 5-sinf
- Qozoq tili 6-sinf
- Fizika 6-sinf
- Algebra 8-sinf
- Geometriya 9-sinf
- Algebra 9-sinf
- Geometriya 8-sinf

### Turkman tilidagi darsliklar:

- O'qish kitobi 2-sinf
- Turkman tili 3-sinf
- Turkman tili 3-sinf
- Turkman tili 4-sinf
- Turkman tili 4-sinf
- Ona tili 4-sinf
- Algebra 8-sinf -2003 yil
- Algebra 8-sinf - 2004 yil
- Geografiya 9-sinf
- O'qish kitobi 2-sinf
- Ona tili 4-sinf
- Botanika 5-sinf

### Qirg'iz tilidagi darsliklar:

- O'qish kitobi 2-sinf
- O'qish kitobi 4-sinf
- Algebra 8-sinf
- Adabiy oku 3-sinf
- Geografiya 9-sinf
- Geometriya 8-sinf



## МАКТАБ

Har kun ertalab turib,  
Maktabga yo'l solamiz.  
Aziz muallimlardan,  
Yayrab saboq olamiz.  
Maktabimiz - faxrimiz,  
Bilimlarning o'chog'i,  
Muhabbat cheksizdir,  
Bizga ochiq quchog'i.  
Ustozlarning o'gitin,  
Qalb qo'rida saqlaymiz.  
Rahmat aytilib ustozga,  
Mehnatlarin oqlaymiz.


Hosiyatxon QOZIYEVA,  
Yangiariq qishlog'i,  
8 - sinf o'quvchisi.



## САЗОВОРИ ТАҲСИН

Дар ноҳияи Сўх 25 мактаби таҳсили ҳамагони, 6 муассисай беруназмактаби ва 21 кўдакистон бо тарбияи насли наврас машғул аст. Дар ноҳия ба ривочи варзиш аҳамияти маҳсус дода мешавад. Дар ҳамаи муассисаҳои таълимӣ майдончаҳои варзиши мавҷуд буда, дар 148 сексияҳои спорти 4888 нафар донишомӯзон ба намудҳои гуногуни спорт машғуланд. Бо ҳамкории бунуоди варзиши ноҳия маҷмӯи спортии «Суғдиуон» соҳта, ба истифода дода шудааст.

Дар ноҳия мусобиқаҳои гуногуни варзиши гузаронида мешавад. Дар мусобиқаҳо оид ба бозии футбол, ки ба қариби гузаронида шуд мактаби 22 ғолиб гардида, бо тўхфаҳои хотирави мушарраф гардонида шуданд. Бо дастирии Шўъбаи таълими ҳалқи ноҳия санчишҳои тестии «Алпомиш». ва «Барчиной» низ-бо ҷўшу хурӯш гузаронида шуда, соли чори дар он зиуода аз 9000 донишомӯзон маҳорати худро санчида лидаанд.



## TENGDOSHLARING IJODI

So'x tumani Farg'onan viloyatining tog'lik hududida joylashgan so'lim go'shalaridan biridir. Ushbu tumanda 25 ta umumta'lim va 3 ta ixtisoslashgan maktablarda bolajonlarga tojik tilida saboq beriladi. O'quvchilar o'z ona tilidan tashqari o'zbek tilida ham ijod qiladilar. Maftunkor tabiatи va musaffo havosi ta'siridan ilhom olgan yosh ijodkorlar Vatan, ona yurt, maktab haqida o'zlarining ilk she'rларини bizga yuborishgan.

## YURT MADHI

Ziyorat aylang do'stlar,  
Yurtimga kelsa bahor.  
Go'zal va xushmanzara,  
Ajib tabiatи bor.  
Uning oti So'x do'stlar,  
Atrofi to'la tog'lar.  
Musaffo toza buloq,  
Har bir go'shada bog'lar.  
Gullab, yashna doimo,  
To bor ekan bu dunyo,  
Farishtali So'ximsan,  
Jannatmakon yurtimsan.

## POSBON QIZ

Momolarim ortidan  
Endi men ham yuraman,  
Vatanim shon-shuhratin,  
Kuylashga shay turaman.  
O'zbekiston madhingni,  
Jonu dildan kuylayman,  
Onam kabi Vatanni,  
Tinchligini o'yayman.  
Osoyishta kechmoqda,  
Farovon hayotimiz.  
Yurtimda tinchlik bo'lsa,  
Yangragay bayotimiz.

Navbahor MUQADDASOVA,  
Oftobro' qishlog'i, 6-sinf o'quvchisi.

Sahifani  
Zebo TOHIRIYON tayyorladi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

### KO'KTOY

Shaharga qaytdimu xayolim bog'hovlida bo'lib qoldi. Yashirib nima qilaman, Oqtoshni o'ylardim. Uning huvillagan perronda cho'nqayib o'tirishi ko'z oldimdan ketmasdi. Tavba, u meni kuzatib qoldi-ya... Men bo'lsam uni shafqatsizlarcha tashlab kelaverdim. Hazil-hazil bilan bog'hovlimizda kaminani ham sabrsizlik bilan kutadigan bir jonzot paydo bo'lgan edi. Endi uni ham o'yplashim, o'ziga yarasha sovg'a-salomlar bilan borishim kerak edi. Yana u Boymurod akaning ta'biri bilan atyganda qanaqa itki!..

Beixtiyor xalqimiz orasida yuradigan maqollar yodimga tushdi: «It vafo, xotin jafo», «Itni qopmaydi deb, otni tepmaydi deb bo'lmaydi», «Qovunning shirinini it yeydi», «Oq it, qora it — bari it», «It — itligini qiladi...» Bularni eslashdan murod o'zimcha Boymurod akaning bashoratlariga biron bir dalil izlab ko'rish edi. Ha, odamzod o'zi shunaqa. Eshitsa — ko'rsam deydi. Ko'rsa — ushlasam deydi. Ushladimi — kesib olsam deydi. Shu antiqa fe'li bilan odam boshqa maxluqotlardan farqlanib turadi. Bo'lmasa meni bu hardamxayol narsalarga hech kim boshingni qotir demayapti. Bore, deb qo'l siltab qo'yaqolsam ham bo'ladi. Miyani suyultiradigan bundan boshqayam tashvishlar ko'p. Balki Oqtosh Yo'ldosh Eshbekniyam Boymurod akaga o'xshab akillab kutib olganida yoki bo'imasam meni bunchalik izzat bilan kuzatib qo'ymaganida chindanam boshim qotmas edi. Boymurod akaning jinlar haqidagi gaplari-chi? Jin o'zi bor narsa. Uni yo'q deyish gunohi azim. Olloh

Shavkat RAHMON.

## UMRIM UZAYGANI MUBORAK BO'L SIN!

Odam uzoq yashar,  
judayam uzoq,  
agar do'sti bo'lsa suyanadigan,  
agar do'sti bo'lsa har qutlug' safar  
bahaybat quyosday uyg'onadigan.  
Bugun men umrimning qoq o'rtasida,  
dil-dildan tuygancha bir haqiqatni,  
sevinib, sog'inib yashay boshladim  
soatga cho'zilgan hak daqiqani...  
Umrin uzaygani muborak bo'lsin,  
rost bo'lsin oylarday teran kimdir,  
umrday bahorlar,  
bahor bo'yalarin  
taratgin o'zgacha rangli ko'zlarin  
Osmondan dalani to'ldirib nurga,  
bebaho tilsimlar o'stirgan, do'stim  
yuz ming yelkalarim,  
yuz ming qo'llarim,  
yuz ming yuraklarim seniki bo'lsin!  
Bug'rida ezzidik urug'lari-la  
asrdan-asgar o'tayotgan, do'stim,  
sen uchun jonim ham jismimni yorib,  
yuz mingta xanjarday  
jaranglab o'sdi.  
Umrin uzaygani muborak bo'lsin,  
oqari rost bo'lsin to'kin daryoday.  
Endi kunlarimning qat-qatlarida  
aslo o'limlar yo'q,  
faqat hayot bor.

o'zining muborak Kitobida inson va jinlarni menga ibodat qilishlari uchun yaratdim, deb marhamat qiladi. Qur'onda hatto alohida jin surasi ham bor. Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassalam jinlarga Qur'on o'qib bergenlari haqida hadislar bor. Kofir jinlar iyomon keltirib, musulmon bo'lishgan.

Bolaligimizda bularni chala-yarim bo'lsayam eshitganmiz. Shayton, jin, alvasti, pari degan narsalarni odamlarni qo'rqtish uchun o'ylab topishgan deyishardi maktabda. Ota-onalarimiz rost gapni aytgani qo'rqihsardi. Xudoga ishongan ota-bobolarimiz sovuq o'lkalarga surgun qilingan, qamalgan, otilgan, osilgan-da. Shungami, butun bir avlodlar og'izlariga talqon solgandek jim-jim o'tib ketishdi. Biroq jinlar ham odamlar bilan birga-birga yashayverdi. O'rni kelganda gohi-gohida o'zlarini ko'rsatib ham turishdi.

O'zim ham hayotim mobaynida necha bor jinlarga duch keldim. Shunchaki tush ko'rdim shekilli, bosinqiradim chog'i, deb sarkashlik qilganman. Mana endi... Dinga erkinlik berilgach, Olloh yaratgan har bir jonivor, olamning har bir go'shasi ko'zimizga mo'jiza bo'lib ko'rinyapti. Oqtosh shularning bittasi...

Sizga Sharik degan itimizni aytgan edim. Sharikning rangi oq ham, qora ham, ola ham emasdi. Mallaroq edi shekilli. U qishlog'imizda ko'p tug'ishi bilangina mashhur edi, xolos. Ammo Ko'ktoy degan bir it bor edi. U Oqtoshga o'xhab qishloqda mashhur bo'lib ketgandi. Ko'ktoy Otyo'ra xola deganning iti edi. Uning junlari ko'kimdir, bo'yi baland, o'zi xipcha, xuddi yangi tug'ilgan toychoqqa o'xshardi. Shuning uchun ham uni Ko'ktoy deyishgan bo'lsalar kerak. Ko'ktoy hamisha bo'sh yurardi. Beozor edi. Katta-yu kichikka, tanishu notanishga el bo'lib ketaverardi. Ammo qishloq odamlariga bir beminnat dastyordek xizmat qilardi. Birov kechasi tegirmonga boradigan bo'lib qolsa hamrohlik qilardi. Yolg'iz odam kunduz kunlari Bo'zuv bo'ylariga tushgani qo'rqardi. «Ko'ktoy» deb ovoz bersa bas, osmondan tusharmidi, yerdan chiqarmidi, ishqilib bir zumda paydo bo'lib qolardi. «Xizmat» degandek boshini bir tomonga qiyshaytirib, dumini likillatgancha, jilpanglab qarab turardi. Ammo uning hushtakka tobi yo'q edi. Shuning uchun ham u bolalar bilan unchalik chiqisholmasdi. Biz jig'iga tegib ataylab hushtak chalaverardik. Jon-poni chiqib akillab berardi. Boshqa itlar bilan urushtirmoqchi bo'lardik. Ko'ktoy ozg'in bo'lgani bilan qishloqdagi hamma itlardan daroz edi. Lekin biron martayam it bilan urushganini ko'rmaganman.


Urushdan keyingi —

elliginchi yillarning o'rtalari. Tekis, yaxshi yerlarga paxta ekilar, odamlar suv chiqmaydigan tepalarda istiqomat qilishardi. Shuning uchun ham bu joylar katta qo'rg'oncha, kichik qo'rg'oncha yo falonching qo'rg'onchasi, katta tepe, kichik tepe degan nomlar bilan yuritildi. Tepalar bahor paytlarida yashnab ketardi. Kuzgi bug'doylar ko'zni quvontirib mavj urar, cho'g'dek bo'lib lolaqizg'aldoqlar ochilar, binafsha rangli chuchmomalar ko'zga tashlanardi. Chuchmomaning ildizi shirin bo'ladi. Biz uni shimgancha varrak uchirardik. Osmon ko'm-ko'k. Ana-mana deguncha bug'doylar pishib, o'rib olinardiyu tepalar qizib, bamisoli do'zaxga

(yoxud jinlar olami)



OSMON DAN  
TUSHGAN OQTOSH



aylanardi. Jaziramadan nafas olib bo'lmasdi. Ba'zi odamlar hovlining o'rtasidan chuqur handaq qazib, ichiga tok ekkan edi. Xandaq qish bo'yi qor, yomg'ir suvlarini yig'ib olardi. Tok novdalari xandaqdan o'rib chiqib, so'rilarga taralar, katta-katta, shirasni tilni yoradigan uzum boshlari solardi. Tepalar chinqiroq ilonlar, rangi pesga o'xshagan kaltakesaklar, cho'l baqalari, tegib ketsa o'zidan badbo'y hid chiqaradigan qora qo'ng'izlar, ko'k qarg'alar makoniga aylanadi.

Odamlar kun o'tkazish uchun Bo'zuv bo'ylaridagi jar-jurlar, qamishzorlarni olib dehqonchilik qilishar, omonat chaylalar qurib, mol-xoli-yu bola-chaqasi bilan ko'chib chiqishardi. Ammo qishloqdagi eng katta ish — bu g'o'za parvarishi edi.

Biz ham tepe oralig'idagi tashlandiq yerni tomorqa qilib ko'chib chiqqan edik. Tomorqalarga makkajo'xori, qovuntarvuz ekilardi. Qovun-tarvuz shaharga olib borib sotilar, puliga kiyim-kechak olinardi. Makkajo'xori eng ko'p ekiladigan ekin edi. U paytladagi makkajo'xorilar hozirgidek sariq bo'lmasdi. Oppoq, xuddi katta marvarid donasidek bo'lardi. Kuchli yerdarda uchta, beshtagacha so'ta quchoqlardi. Oftobda quritilib, to'qmoqlanardi. Doni ajratilib, tegirmonda un qilinar, zog'ora nonlar yopilardi. Xamir qorilganda sut, qovoq yoki lavlagi qo'shilardi. Bo'lmasa zog'ora tandirda turmasidi. Nochor oilalar xamirni shundoq qo'rga ko'mib, ko'moch qilib yeyishardi. Unisiyam, bunisiyam shirin bo'lardi. Bug'doy nonni kam ko'rardik. Bug'doy uni faqat xamir ovqatga ishlatalardi. Ahyon-ahyonda atala qilinardi.

Bir kuni chaylamizdan shisha

Erkin MALIKOV

bankadagi saryog'imiz yo'qolib qoldi. Men saryog'dan ham ko'ra bankasiga achindim. Axir bunaqasi qishlog'imizda bitta edi-da! Uni Majid pochcham urushdan olib kelgan edilar. Uni yaltiroq temir qopqog'i bo'lib, tutqichiyam chiroyli edi. Qopqog'ining bir chekkasini bossa ochilardi, qo'yib yuborilsa, o'z-o'zidan yopilib qolardi.

Ammamlar katta boylikdan ajrab qolgandek, bir ahvolga tushdilar. Nuql qo'yan joylarini qayta-qayta qaraydilar. Xuddi yo'qolgan saryog' topilib qoladigandek.

Qiyinchilik yillari bo'lgani bilan, birovning narsasiga birov ko'z olaytirmsadi. Qaytaga borini bo'lishib yeyilardi. Bir qoshiq yog' ko'zga surtgulik, bir burda non boshga qo'yulik edi. O'zim ko'rganman ammamlar qo'shnining qozoniga saryog'ni bankasi bilan olib chiqib, bir qoshiqqina solib bergan edilar. O'sha bir qoshiq yoqqa piyozdog' qilinar, suv solib qaynatilar, uning otini piyava deyishardi. O'zimiz ham qozonga bir qoshiqdan ko'p yog' solmasdik. Ammamlar bir haftada bir kuv pishar, undan mushtumdekkina saryog'tushar, eritib bankaga solib qo'yardilar. Ammamlar saryog'ni yo'qolganiga tamoman ishonib bo'lgach, qarg'andilar:

- Ha, tiqilib o'lgur, xoynahoy o'sha ogen, - deb shahd bilan o'rinalidan turdilar-da, o'choq boshidan kosovni olib, meni ergashtirdilar. - Uzoqqa ketmagan u yer yutkur... Men ham o'g'ri topilganidan suyunib darov tut po'stlog'idan o'rilgan jing'il sopli qamchimni olib, havoda bir-ikki qarsillatib, ammamning oldiga tushib, yura boshladim. Shu payt ammamning o'rtoqlari O'g'iloy opa kelib qoldilar.

- Ha, o'rtoq, kosov ko'tarib obsan, tinchlikmi?

Ammam «Otasining og'ziga...» deb bolaxonador qilib qarg'andilar-da, arz qila ketdilar:

- Boya bitta qorong o'chikr mardikor qorin to'yishga ish so'rab keluvdi. Qarasam, ko'zlar olmakesak... ish qiladiganga o'xshamaydi, ish yo'q, deb haydavoruvdim. Qirilib ketgur o'sha bankadagi saryog'imni o'marib ketibdi. Xoynahoy, uzoqqa ketmagan, tepaning naryog'idagi jarga bekingan. Yuragim sezib turibdi...

Safimizga O'g'iloy opa ham qo'shildilar. Men yanayam dadillasdim. Axir uch kishi bitta daydini tutolmaymizmi?! Qamchin bilan oyog'iga o'xshatib turib bir solsam guppa yiqiladi... Shunday xayollar bilan ammam va O'g'iloy opani orqada goldirib, jar tomon yugurdim. Nima bo'lganda ham men o'g'il bolaman-da. O'g'rini birinchi bo'lib ko'rishim, qamchi o'qtalib, «to'xta, o'lasan» deyishim kerak. Yaxshilikcha saryog'ni bersa berdi, bermasa... Saryog'ni yeb qo'yan bo'lsa-ya?!

Halloslagancha jar yoqasiga yetib keldim. Jarda odam bolasi ko'rinasdi. Hafsalam pir bo'ldi. Ammo shu payt ko'zim Ko'ktoyga tushib qoldi. Yanayam botirlashib ketdim. Endi Ko'ktoy bilan har qanday o'g'rining iziga tushishi mumkin. Qochib, qutulib bo'pti. Ko'ktoyni chaqiraman.

(Davomi bor).

## Bizning to'garak

Bu afsonani bizga O'zbekiston xalq ustasi, ganchkor Asror MUXTOROV so'zlab berdilar. O'sha kuni she'r va maqola-yu hikoya yozadigan tengdoshlarinigiz, «Istiqlol umidlari» to'garagimiz a'zolari qo'l mehnati bilan qanday qilib ajoyibot yaratish mumkin ekanligini anglab olishdi.

*Qadim zamonda bir shoh bo'lgan ekan. U juda nozik ta'bli bo'lib, har narsa didiga mos kelavermas ekan. Bir kuni shoh olamda tengsiz bo'lgan saroy qurdirmoqchi bo'libdi va shahardagi barcha usta-yu, duradgorlarni qoshiga chorlabdi. Agar farmonim bajarilmasa, barchangizning bolalaringiz qullikka haydaladi, debdi.*

*Bu gaplardan hayrat va hayajonga tushgan ustalar ming bir talvasa-yu harakatda ganchkorlik va o'ymakorlikka asos solishibdi va shoh farmonini oliymaqom qilib bajarishibdi...*

## DID-FAROSAT KITOB O'QIGANLARDADIR

O'quvchilik davrimda adabiyotga juda qiziqardim, she'r va dostonlarni juda tez yodlab olardim. Masalan, «O'quvchiga esdalik», «Terak bilan devpechak» she'rlari... «Alpomish» dostonidan parchalarni hal-hamon yoddan bilaman.

Mahallamizga ganchkor usta ko'chib keldi-yu, ularning ishlarini zimdan kuzatib, shu hunarga mening ham ishtyoqim ortdi. 1960-yillardan boshlab ganchkorlik to'garagiga qatnay boshladim. Bizning ishlarimiz London, Moskva, Polsha kabi yirik davlatlarda ko'rgazmaga qo'yilgan. To'garagimizga dastlab juda ko'p bolalar qatnashishgan. Ammo keyinchalik bu ishning murakkabligidanmi, tashlab ketishgan. Men Mahmud Usmonov qo'llarida bu hunarni havas bilan o'rganganman. 6 yil ustozga shogird bo'lib, so'ngra ular bilan birga ishладим. 1974-79-yillarda shu hunar bo'yicha Respublika o'quvchilar saroyida ganch-

o'ymakorlik to'garagiga rahbarlik qildim.

Bir necha shogirdlarim bilan Qashqadaryodagi «Salom» choyxonasida birinchi ishimizni boshlaganmiz. Ko'pchilik

Ganchkorlikda pardozlash uslublari mavjud. Ulardan, paxpardozi, chokapardozi, yormapardozi, lo'lapardozi, qirmapardozi va boshqa

farzandimni yutug'ini ko'rgandek quvonib ketaman. Buning ustiga bolalarim ham mening yo'limdan yurishgan. Yaqinda bir o'g'lim Irkutskdagi restoranlardan birini bezatib qaytdi. Xullas, shogirdlarim bilan faxrlansam arziyi.

Men adabiyotga juda qiziqardim. Keyin stol tennisiga. Hali ham ushbu sport turini havas bilan o'ynab turaman.

- Aziz bolalar, avvalo yaxshi o'qing. Adabiyotni seving, did-farosatlari bo'lasiz. Yaxshi o'qiganlar yaxshi xulq-atvorli, odoblilardir. Yoshlikda olingan bilim toshga bitilgan naqsh kabidir, deb bekorga aytilmagan. Shuning uchun ham bolalar hamma narsaga ulgurishlari kerak.. Yaxshi o'qish, orzularga yetishish uchun sevimli gazetam, bolaligim hamrohi - «Tong yulduzi» mushtariylariga sihat-salomatlik tilab qolaman.

Ozoda TURSUNBOYEVA va Ma'suda VOHIDOVA yozib olishdi.



ganchkorlik, naqqoshlik, haykaltaroshlik orasidagi farqlarni bilmaydi. Men ularni farqini sizlarga tushuntirsam...


Haykaltaroshlik asarlari bronza, mislardan yasalsa, naqqoshlik eskizlarda chizilib, ranglar bilan chiqariladi. Naqshlar guli bir-biridan uzilmaydi. Naqqoshlik bilan ganchkorlikning orasi yaqindek tuyuladi. Ganchkorlikda asosan gips, alebastr, ganch ishlataladi.

Buning ustiga: Xorazm, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Termiz kabi uslublarga bo'linadi.

Ijodkor mehnat mahsulini ko'rgach, uning bor charchoqlari ham chiqib ketadi. Shahrimizdag'i qator ma'muriy binolarda ishlaganman. Ba'zi vaqtarda ishni tezroq sur'atlarda olib borishimizga to'g'ri kelardi. Lekin qilayotgan ishimdani boshqalar baha olishini, mening mehnatim zoye

## TOPISHMOQLAR

Ado etib o'zini  
Tozalikka yo'l ochar.  
Baqaga o'xshab gohi  
Qo'llardan sakrab qochar.



Neki bo'lsa dasturxonada Barisini talaydi.  
Indamasdan,  
Qo'yib bersang,  
O'zingni ham yalaydi.  
Baqir-chaqir, to'polonni  
Sezmas, garang hoynahoy.  
Piyolaga yaqin kelmas,  
Qo'yib bersang issiq choy.



Qancha shirin bo'lsa,  
shuncha,  
Og'zingizni toldirar.  
Qo'lingizdan qo'ymasangiz,  
Sizni ishdan qoldirar.

U bor bo'lsa, na yomg'ir, na do'l,  
Eta olar ko'nglingni xira.  
O'ylagani yelkalar-u bosh,  
Oyoq bilan ishi yo'q sira?




Chiroq o'chsa, yordamga kelib,  
Yog'du sochib, ko'nglimiz olar.  
Yonib-yonib ado bo'lguncha,  
To'rt devorga rasmimiz solar?



Abdurahmon AKBAR  
Hech kim kulmas ustingdan  
Hech kim demas «voy!»  
Artib yursang burningni  
Unga, kichkintoy...



Parraksiz ham osmonda  
Parvoz etaman.  
Tortmasangiz ipimdan  
Oyga yetaman.



19.09.2005

Os yurtiga - olim bosqiling  
**TONG yulduzi**  
O'zbekiston Respublikasi  
bolalari va  
o'smirlarining gazetasি

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida  
ABDUAZIMOVA

**TAHIR HAY'ATI:**  
Turobjon JO'RAYEV,  
Shuhrat AHMEDOV,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinnbosari),  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
Nurxon NAFASOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

**Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida**  
022-raqam bilan  
2003-yil 11-dekabrdan  
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir  
«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi.  
Gazeta  
«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi  
kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va  
chop etildi.  
Gazeta haftanining dushanba  
kuni chiqadi.  
Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.  
Adadi - 14 299  
Buyurtma N: J 1631

Dizayner va sahifalovchi:  
Otobek  
ESHCHANOV.  
Navbatchi:  
Ozoda  
TURSUNBOYEVA.

Rassom:  
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38  
144-38-10  
144-63-08  
Tel/faks:  
(998 71) 144-24-45